



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

MUSTAQILLIK DAVRIDA BOBURSHUNOSLIK

BABUR STUDIES IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Turobov Abdurayim Malikovich

Filologiya fanlari doktori

Samarqand davlat chet tillar instituti professori

E-mail: turobov1970@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./UWLN5752](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./UWLN5752)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillik davrida boburshunoslik o'rganilgan. Qisqa umrda, o'lmas me'muar asarlar, nodir devonlar tartib berganligi, umrboqiy jang san'ati ibrat maktabiga asos solganligi qayd etilgan. Uning harbiy ilmidagi tajribalari Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Napoleon, Amir Temur kabi jahonga taniqli buyuk siymolarning yutuqlari qatoriga qo'yib o'rganilganligi haqida ham ma'lumot berilgan. “Boburnoma” asari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr qilingan memuar asar sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi ilmiy jihatdan isbotlangan.*

Kalit so'z: *boburiylar avlodi, ekspeditsiya, ma'rifiy, jamg'arma, Hiriy, Bomiyon, Gulbahor, Istolif, G'azna, Qobul, Peshavar, Siyolkat, Qandahor, Lahur, Sirhind, Dibalpur, Biyona, Alvar, Panipat, Dehli.*

Annotation. *This article examines Babur studies during the period of independence. It highlights that despite his short life, Babur compiled immortal memoir works, arranged rare poetic divans, and founded an exemplary school of military art that has remained influential over time. The article also provides information on how his military experience has been studied alongside the achievements of world-renowned historical figures such as Alexander the Great, Julius Caesar, Napoleon, and Amir Temur. Furthermore, it is scientifically demonstrated that Baburnama, as a memoir, has been translated into many languages of the world and repeatedly published, and that it has not lost its scholarly and cultural significance to this day.*

Keywords: *Baburid dynasty, expedition, educational, foundation, Herat, Bamiyan, Gulbahar, Istalif, Ghazni, Kabul, Peshawar, Sialkot, Kandahar, Lahore, Sirhind, Dipalpur, Bayana, Alwar, Panipat, Delhi.*

Bobur o'zbek ziyolilari tarixidagi dilbar va mumtoz, takrorlanmas va serqirra, shoh va shoir, vatandan yiroqda yashagan eng vatanparvar va o'ta murakkab taqdir sohibi bo'lgan buyuk shaxsdir. Qisqa umrda, o'lmas me'muar asarlar, nodir devonlar tartib berdi, umrboqiy jang san'ati ibrat maktabiga asos soldi.

Uning harbiy ilmidagi tajribalari Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Napoleon, Amir Temur kabi jahonga taniqli buyuk siymolarning yutuqlari qatoriga qo'yib o'rganiladi.



Musofir jahongashta Bobur Mirzo yigirma besh yoshida Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh singari mamlakatlarni zabt etib, Boburiylar saltanatiga asos soldi. Uch yuz yildan ortiq, bu saltanat ezgulik mayog'ini baland ko'tarib turdi. Boburning hayoti va ijodi yashab turgan davridayoq o'rganila boshlagan. So'nggi ikki asr davomida jahon miqyosida keng o'rganildi, “Boburnoma” asari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr qilindi. Boburning ona yurti O'zbekistonda esa, boburshunoslik alohida yo'nalish sifatida chuqur o'rganildi, o'nlab dissertatsiyalar himoya qilindi. Ammo, mustaqillikka erishganimizdan so'ng boburshunoslikka chuqur e'tibor berila boshlandi. Bobursevarlar boburshunoslikka yangicha yo'nalish jihatidan yondasha boshladi. Boburparvarlarning mashaqqatli mehnatlari tufayli mustaqillik davrida, tug'ilib o'sgan ona shahri Andijonda Bobur bog'i tashkil qilindi, Bobur Mirzoning memorial yodgorlik majmui qurildi, Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma tuzildi, Xalqaro ilmiy ekspeditsiya tashkil qilindi.

Bugungi kunda ham Hindistonda boburiylar avlodi yashayotganligi haqida Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi a'zosi, yozuvchi Xayriddin Sultonov “Boburiynoma” nomli ma'rifiy romanida (1997-yil) ma'lumot berdi.

Dehlida yashayotgan Boburiylar avlodi Qamarjahon Zebunniso Begim, Qamarjahon Zebunniso Begimning qizi Pokiza Sulton Begim va Ziyoviddin Tusiy xanodonida bo'ldi. Esdalik uchun tushgan rasmlarni keng jamoatchilikka e'lon qildi. Shu o'rinda Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma a'zolari, qolaversa, Xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi a'zolarini, Andijonning fidoiy insonlari nomini eslashni lozim topdim. Zokirjon Mashrabov, Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma prezidenti, ekspeditsiya rahbari, Xayriddin Sultonov, yozuvchi, Prezidentning davlat masalahatchisi. Abdug'ani hoji Hamidov, “El” xalqaro jamiyatining Andijon bo'limi raisi. Sobirjon Shokarimov, jurnalist. Sayfiddin Tursunov, ekspeditsiya vrachi, professor. Rustam Shamsiddinov, tarixchi, professor. Shuhrat Madazimov, ekspeditsiya homiysi, zavod direktori. Orifjon Uraimov, firma rahbari. Mahmud Rahimov, tarjimon, AnDTI prorektori. Muhammadsodiq Qosimov tarjimon, qori. Farruh Rasulov, jurnalist, O'zbekiston televideniyesi Andijon viloyat muxbiri. Ahmadjon Ismoilov, hofiz. Bahrom aka va Rustamjon akalar haydovchilar. Shu fidoiy insonlar tashkil qilgan ekspeditsiya tufayli Boburshunoslikda yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Bu fidoiy insonlar oltmish kun Bobur Mirzo yurgan o'n sakkiz ming kilometr yo'l yurib, musofirchilik azobini tortib, xayrli ishlarni amalga oshirdilar. Andijonga Bobur Mirzoning qabridan tuproq keltirib, ramziy qabri tashkil qilindi.

Sarhisob qilib chiqsak, qisqa 47 yil umri davomida, 47tadan ko'proq shaharlarni bosib olgan. Taxtga o'tirgandan so'ng, bir shaharda ikki marta muborak tavallud kunini nishonlash nasib etmagan. Andijon, Toshkent, Ahsi, Havos, Jizzax, Buxora, Karmana, Zomin, Samarqand, Qarshi, Xisor, Kesh, Termiz, Shibirg'on, Hiri, Bomiyon, Gulbahor, Istolif, G'azna, Qobul, Peshavar, Siyolkat, Qandahor, Lahur, Sirhind, Dibalpur, Biyona, Alvar, Panipat, Dehli,

Jaynur, Sigiri, Agra, Kanuj, Lakhnava, Chanderi, Banoras, Sambal, Saru, Chunar, Sikandarpur, Jimpur, Patna va Behra kabi shaharlarni zabt etdi, bog'lari-yu tog'larida otda qilich bilan jang qildi, cho'llarini kezdi, daryolarini kechdi. Tahlikali umrguzaronlik qildi.

Sirdosh deb bilgan eng yaqin odamlari, unga xiyonat qildi. Kinga yaxshilik qilsa, yomonlig' topdi. Inson zotiga bo'lgan ishonch yo'qoldi. Shu sabab:

Kim ko'ribtur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq...

– deb nola chekadi. Insoniyatni xushyorlikka da'vat etadi.

Fard janrida bitilgan quyidagi go'zal va betakror misralar bilan o'quvchilar qalbidan mustahkam o'rin egallaydi.

Istaram yetsam quyundek gul'uzorim qoshig'a,

Ollida tufrog' bo'lub, evrulsam oning boshig'a!

Elga shoh bo'lsa ham, yor oldida qul kabi tuproq qadar bosh egishga tayyor ekanligini faxr bilan tilga oladi. Yorga (visolga) qyun tezigida intilish, unga bosh egish unitilmas oniy zavq tuyg'usiga oshno qilishni oliy baxt deb biladi. Bunday misralar bilan o'quvchilar qalbiga eng nozik tuyg'ularni olib kiradi.

Har kimki vafo qilsa vafo topgusidur,

Har kimki jafo qilsa jafo topgusidur,

Yaxshi kishi yomonlig' ko'rmagay hargiz,

Ha kimki yomon bo'lsa jazo topgusidur!

Deb yozib insonlarni olijanob tuyg'u sanalgan, vafo qilishga da'vat etadi. Uning aksi o'laroq jafokashlik qilish, jafo bilan jazolanishini muqarrar aytadi. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmasligini istaydi. Yomon kishi esa albatta jazolanishini ta'kidlaydi.

Taqdir yuki boshimga balolig' bo'ldi,

Har neniki ayladim hatolig' bo'ldi,

Oz yurtni qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo Rab netayin, bu ne yuz qarolig' bo'ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur, o'z taxallusiga monand jasur, she'ryurak, mard, insoniyat tarixining dilbar shaxsidir. “Taqdir yuki boshimga balolig' bo'ldi”, – deb yozib, taqdiri naqadar murakkab ekanligini e'tirof etadi. Bu murakkab taqdir taqozasi bilan, o'z yurti Andijonni qo'yib Hind sori yuzlanganligini ta'kidlaydi, bir lahza bo'lsa ham vatan sog'inchi tinchlik bermaydi. Eng katta orzusi Andijonga qaytib kelish ekanligini aytadi.

Hammamizga yod bo'lib ketgan quyidagi ruboiy, ABADIYOTGA dahldor umrboqiy misralardan tashkil topganligi bilan ham, e'tiborga molikdir.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Har neniki sevmak andin ortiq bo'lmas,

Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

O‘zi aziz bo‘lgan inson boshqalarni ham azizlaydi. Shaxsan menga Hazrat Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburdan saboq bergan, alloma, donishmand ustozim, akademik Botirxon Valixo‘jayev ta‘biri bilan aytganda, azizlanayotgan odam aziz emas, azizlayotgan odam azizdir. Darhaqiqat, sevimli yorga: “Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz” – deb murojaat qilish bilan birga, o‘zining ham azizlardan azizroq ekanligini isbot etadi. Bir insonni qancha sevish kerak bo‘lsa, o‘shandan ham ko‘proq seva olishini e‘tirof etadi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va merosi o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy va ma‘naviy taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallaydi. U nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki nozik didli shoir, teran tafakkur sohibi, inson ruhiyati va taqdir murakkabliklarini chuqur his etgan mutafakkirdir. Boburning qisqa, ammo sermazmun umri davomida yaratgan “Boburnoma”si va she‘riy merosi bugungi kunda ham ilm-fan, adabiyot va tarix uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida boburshunoslikka davlat miqyosida e‘tibor qaratilishi, Bobur nomi bilan bog‘liq ilmiy, madaniy va ma‘rifiy tashabbuslarning amalga oshirilishi buyuk ajdodimiz siymosini qayta kashf etish va uni milliy ongimizga chuqur singdirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bobur ijodida ilgari surilgan vatanparvarlik, vafo, insoniylik, sabr-toqat va adolat g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning she‘riy satrlarida mujassam bo‘lgan hayot falsafasi, insoniy kechinmalar va vatan sog‘inchi har bir avlod qalbida chuqur aks-sado beradi. Shu bois Bobur merosini o‘rganish nafaqat tarixiy zarurat, balki ma‘naviy ehtiyoj hamdir.

Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek xalqining faxri, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymo bo‘lib, uning hayoti va ijodi kelajak avlodlar uchun hamisha ibrat va ilhom manbai bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Xayriddin Sulton “Boburiynoma” roman. – Toshkent, – 1997. 496-b.
2. Turobov A. “Men suyangan qoyalar” risola. – Samarqand, – 2004. 92-b.